



## MUTOLAA MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHDA AXBOROT- KUTUBXONA MARKAZLARINING O'RNI

**Eshbaeva Aqsúngúl Alisher qızı- Qaraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli  
tumani Axborot-kutubxona markazi direktori.**

**«Mutolaa insonni to'ldiradi!- deyishadi,  
darhaqiqat u insondagi bo'shliqlarni zarur  
ilimlar bilan to'ldiradi»Doris Lessing**

Barchamizga ma'lumki, har qaysi xalq qanday yutuq va muvaffaqiyatga erishmasin, uning zamirida madaniyat va ma'rifat alohida ahamiyat kasb etadi. Manaviyatning rivojlanishida esa jamiyatning intellektual imkoniyatlarining mavjudligi hal qiluvchi omil ekanligi hammamizga ma'lum. Madaniyat tushunshasining murakkab va ko'p qirrali ekanligi ijtimoiy fanlarda mazkur tushinchaga yondashuvning qilma-qilligiga, barchani qanoatlantiruvchi yagona ta'rifning qabul qilinmay kelyayotganligiga sabab bo'ldi. Manbalarning guvohlik berishiga ko'ra, bugungi kunda ilm-fanning turli sohalarida madaniyatga 250 dan ortiq ta'rif berilgan.<sup>1</sup> G'arb ijtimoiy fanlar tarixida dastlabki hamda bizning nazarimizda bir muncha e'tiborga loyiq bo'lgan ta'rif 1871 yilda ingliz etnografi Eduard Bernett Taylor tamonidan ishlab shiqilgandir: «Madaniyat- bilim, e'tiqod, san'at, ahloq, qonunlar, urf-odatlar va insonning jamiyat a'zosi sifatida

---

<sup>1</sup> Михайлова.Л.И. Социология культуры: Учеб. Пособие. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 1999, - С.19.



o'zlashtiradigan boshqa qobiliyat hamda ko;nikmalaridan tashkil topgan murakkab hodisadir».<sup>2</sup>

Sharq mutafakkirlari madaniyat tushunchasini ma'rifat, farosat, aql bilan uyg'un tushuncha sifatida talqin qilib kelgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy ma'rifatining yuksakligi hamda shu ma'rifiy qadriyatlarning muayyan millat vakillari tamonidan o'zlashtirilganlik darajasi xalqning umumiy madaniy qiyofasini belgilab beradi, degan nuqtai naazarni ilgari surgan. Xususan, u o'zining «Hindiston» nomli buyuk asarida bu borada mufassil to'xtalib, madaniyat va kitobga munosabat, madaniyat va o'qish, anglash, talqin hodisalari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini asoslab beradi.<sup>3</sup>

Buyuk alloma Ibn Sino ma'rifiy tarbiya ishini uzviy maqomga ko'chirish inson yaxlitligi va kamolatini ta'minlash imkonini berishini bayon etadi.<sup>4</sup> O'zbek adabiyotining ulug' siymosi Alisher Navoiyining «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarida madaniyat to'g'risida bayon etilgan fikrlarini umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, madaniyat bilim, aql va aqloq omillarining uyg'unligidan hosil bo'ladi. Alisher Navoiyning inson o'qib-o'rganish, halol mehnat va yaxshi xulq orasidan komilikka erishishi, jamiyatta obro'-e'tiborga, izzat-ikromga ega bo'lishi mumkinligini alohida ta'kidlashi biz uchun juda muhimdir.<sup>5</sup> Bizning nazarimizda, madaniyat tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emasligiga asosiy sabablardan biri mazkur hodisa turmush tarizining deyarli barcha sohasiga kirib borib, inson haayotining barcha jabhalarida namayon bo'lib borayotganligidir. Shu jumladan, jamiyatta mutolaa madaniyatining tarkib topishi,

---

<sup>2</sup> Тайлор Э.Б.Первобытная культура: Пер. с англ. – М:Полипиздит, 1989. – С.18.

<sup>3</sup> Beruniy Abu.Rayhon.Hindiston.T.:1989y 26,37,98, 141-betlar

<sup>4</sup> Uvatov .U. Donolardan saboqlar.-T.:Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.-1994

1. <sup>5</sup> Navoiy Alisher. Majolis un-nafois// Mukkamal asarlar to'plami.-T.13-T.:Fan.1997.-B 119.



shakllanishi va rivojlanishida ham umumiy madaniyatning, ya'ni aholining yalpi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy tayyorgarligi yuksalغانlik darajasining o'rni va ro'li beqiyosdir. Xalqning intellektual saalohiyatini oshirishda esa mutolaa madaniyatining o'rni beqiyosdir. Mutolaa shaxsning barkamol inson bo'lib yetishishi va o'z foaliyati bilan jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, insonni bevosita amalyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltiradi. Ko'rinib turibdiki, jamiyat hayotida ayniqsa sog'lom fikrga ega komil insonni shakllantirishda mutolaa jarayonlarini maqbul yo'nalishda va usullarda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jabhada kutubxonalarning o'rni beqiyosdir. Zero kutubxonaning asosiy maqsadi kitobxon shaxsni har tamonlama kamalotga yetkazishdir. Mamlakatimiz asrlar mobaynida jahon cilivizაციyasi beshiklaridan biri bo'lib kelgan. Butun jahon- marifatiga taraqqiyatiga beqiyos darajada ulush qo'shgan ulug' ajdodlarimiz Al Xorazimiy, Al Buxoriy, Ibn Sino, Al Farg'oniy, Navoiy va Ulug'bekdek daholarimizga cheksiz hurmat va ehtirom ko'rsatgan. Biz ularning olamga mashhur ma'naviy-ma'rifiy ijodi bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning erishgan betakror yutuqlarining sababi ham kitob mutolaasidandir. Mutolaa madaniyati- juda keng tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevishni, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek kitobdan to'liq ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi. Mutolaa madaniyati kitobxonni adabiyotni tolaqonli tushinishga, undan estetik zavq olishga, yozuvchi fikrini va g'oyasini to'g'ri anglash ham da baholay olishga o'rgatadi. Bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish ma'lumot-bibliografik apparatidan o'zini qiziqtirgan yoki kerakli masalalarga doir kitoblarni topa olish va undan o'qishda, ishda, hayotta foydalana olish yo'llarini o'rgatadi. Kitobni tanlash, uni tez o'qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi.



Mutolaa madaniyatini inson umr bo'yi o'rganadi. Lekin uning asosiy qoidalarini yoshlikdan, bola kitobni taniy boshlagan davridan o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Inson yaxshilikka, ezguvlikka undovchi, mardlik, chin sevgi, vafo va sadoqatni madh etgan va vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizni targ'ib etuvchi asrlar haqiqiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi desak, yangilishmaymiz. Mutolaaga kirishgan inson avvalombor o'qiyotgan asarining mazmuni bilan qiziqadi. O'qib tugatgandan so'ng usha asardan, undagi personajlar va voqealardan o'zi uchun nimadir oladi. Shunday ekan, milliy mentalitetimizni aks ettiruvchi, milliy urf-odatlarimiz, oilada va jamiyatta o'z o'rinlarini bilishga, Vatan oldida o'z burchini anglashga yordam beruvchi asrlarni yoshlarimizga ko'proq tavsiya qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Biz o'z hayotimiz, milliy g'oyamiz, millatimiz madaniyatini o'zida aks ettirgan, har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan an'ana va qadriyatlarimizni tarranum etuvchi asrlar bilan o'sib kelayotgan yosh avlodning qalbini yuksak insoniy fazilatlar to'ldirishimiz lozim. Yoshlarni shunday barkamol avlod etib tarbiyalashda esa kutubxonalarning o'rni beqiyosdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTAR:**

1. Beruniy Abu. Rayhon. Hindiston. T.: 1989 y. 26, 37, 98, 141-betlar
2. Михайлова. Л. И. Социология культуры: Учеб. Пособие. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 1999, - С.19
3. Navoiy Alisher. Majolis un-nafois// Mukkamal asarlar to'plami. - T.13- T.: Fan. 1997. - B 119.
4. Тайлор Э. Б. Первобытная культура: Пер. с англ. – М.: Полигиздит, 1989. – С.18.
5. Uvatov .U. Donolardan saboqlar. - T.: Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. - 1994